

## ONG TARAQQIYOTI VA ONGSIZLIK

## THE DEVELOPMENT OF CONSCIOUSNESS AND THE UNCONSCIOUSNESS

## РАЗВИТИЕ СОЗНАНИЯ И БЕССОЗНАНИЯ

Ibragimova Xurshida Xusanbayevna

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogik psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Karimjonova Zaynabxon Xalimjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 102-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14279853>

**Annotatsiya:** Mazkur maruzada ong taraqqiyoti va ongsizlik haqida yoritilgan. Ongsizlikni onglilikdan farqi, ularni bir biriga bolgan tafovudi, turlari va ahamiyati haqida tushunchalar berilgan. Onglilikning hissiy va aqliy turlari, insonlarni hayvonlardan farqlari yoritilgan. Ongga ta'sir etadigan hissiyot va idrok, xotira, tuyg'ular, e'tibor haqida tushunchalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ong, ongsizlik, hissiyot, xotira, idrok, e'tibor, tuyg'u, fikr, aqliy tushunchalar.

**Abstract:** This presentation covers the development of consciousness and unconsciousness. Concepts about the difference between unconsciousness and consciousness, their differences, types and importance are given. Emotional and mental types of consciousness, differences between humans and animals are highlighted. Concepts about emotions and perception, memory, emotions, and attention, which affect the mind, were given.

**Key words:** consciousness, unconsciousness, emotion, memory, perception, attention, feeling, thought, mental concepts.

**Аннотация:** Данная презентация посвящена развитию сознания и бессознательного. Даны понятия о отличии бессознательного от сознания, их различиях, видах и значении. Выделены эмоциональный и психический типы сознания, различия между человеком и животными. Даны понятия об эмоциях и восприятии, памяти, чувствах и внимании, влияющих на сознание.

**Ключевые слова:** сознание, бессознательное, эмоция, память, восприятие, внимание, чувство, мысль, психические понятия.

Ong — bu insonning tashqi olam va ichki holatlarini anglash, ularga baho berish, fikrlash va qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ong insonga o'z tajribalari, his-tuyg'ulari, xotiralari, tushunchalari va atrof-muhitdagi voqealarni tahlil qilib, ular asosida fikr yuritish imkonini beradi. Ongni psixologiya va falsafada muhim tushuncha sifatida o'rganishadi, chunki u insonning intellektual va emosional holatini belgilaydi. Ongning asosiy xususiyatlari. Hissiyot va idrok - ong orqali biz atrof-muhitni idrok etamiz va turli hodisalarga hissiy reaksiyalar ko'rsatamiz. Fikr yuritish va mantiqiy fikr-ong bizga mantiqiy fikr yuritish, xulosalar chiqarish, tahlil qilish va o'z qarorlarimizni qabul qilish imkonini beradi. Xotira- ong orqali o'z tajribamizni eslab, avvalgi voqealarni qayta tiklashimiz mumkin. E'tibor ong atrof-dagi ma'lumotlarga e'tibor qaratish va zarur bo'lgan jihatlarni ajratib olishni ta'minlaydi. Tuyg'ular ongning yana bir jihati insonning ichki his-tuyg'ularini boshqarish va anglashga qaratilgan. Ongning o'zgarishi va

rivojlanishi insonning ma'naviy, ijtimoiy va psixologik holatiga bog'liq bo'lib, uning turlari va darajalari mavjud. Masalan, ongning "yuqori" darajasi va "past" darajasi bor.

Ong inson psixikasi hayvon psixikadan anchagina farq qiladi. Unda ijtimoiy voqelik hukm suradi. Hayvon o'z to'dasidagi a'zolariga yaqqol holat bilan bog'liq bo'lgan, bevosita favqulotdagi vaziyat bilan cheklangan hodisalar yuzasidan "o'zining tili" da habar uzatishi tabiiy hodisadir. Odam esa undan farqli o'laroq nutq vositasida o'z qabiladoshlariga o'tmish, hozirgi davr va kelajak to'g'risida ma'lumot berish hamda ijtimoiy turmush tajribalarini uzatish imkoniyatiga ega. Inson taraqqiyotida til tufayli aks ettirish imkoniyatlari mavjudligi bois, odam miyasida atrd-muhit timsollari, xususiyatlari aniqroq aks eta boshladi. Natijada shaxs kishilik dunyosi tomonidan orttirilgantajribadan bahramand bo'la bordi shuningdek, uning uchun no'malum hisoblangan borliq hodisalari, holatlari, qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarga egalik qila boshladi. Hayvonot olami bilan insoniyatning axborot syirboshlash vositasi orasidagi farqi tafakkurda ham o'z aksini topadi. Chunki har qanday psixik funksiya boshqa turdagi, shakldagi, mazmundagi funksiyalar qobig'ida namoyon bo'lib, muayyan shart-sharoitlar vujudga kelganda rivojlanadi. Yuksak taraqqiy etdan hayvonlarda amaliy tafakkur mavjud, ularning sodda tafakkuri chamalash orqali mo'lchal olishga, favqulotdagi vaziyat yuzaga keltirgan vazifani bajarishga qaratilgandir. Masalan, maymunlar ayrim hollarda "qurol" yasash va undan muayyan masala hal etishda foydalanish hodisalari tajribalarda kuzatilgan, lekin ulardan birontasi tafakkurni mavhum tarzda amaliyotga tatbiq eta bilmagan. Shunday ekan, hayvonlar idrok qilish ko'lamidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega emas, yani ular yaqqollikdan mavhumlikka o'ta olmaydi, hatto ularda bunday vaziyatni aks ettirish imkoni ham mavjud emas.

Ongning psixologik tavsifi - ong psixikaning yaxlit tarzda tevarak-atrofnii ifodalovchi yuksak shakli, yani u faqat odamgagina tegishli bo'lib, nutq bilan bog'liq bo'lgan markaziy nerv tizimi faoliyatidir. Shuningdek, ong shaxsning tevarak-atrofdagi narsalarni, hozirgi va o'tmish davrni yaxshi bilish, o'zlikni anglash, qaror qabul qilish, vaziyatga qarab o'z hatti-harakatini boshqarish qobiliyati bilan namoyon boladi. Psixologik manbalarda ongning tarkibiy qismlarining mohiyati quyidagicha tavsiflanadi. Ong narsa va hodisalar haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzilishi tarkibiga barcha bilish jarayonlari kirib, ular yordami bilan shaxs o'z ravishda boyitib boradi. Bunda bilish ikki xil hissiy va aqliy bosqichda namoyon bo'ladi.

Ongsizlik — ong ishtirokisiz sodir bo'ladigan ruhiy jarayon va holatlar. Ongsizlik ko'pincha, tana harakatida, inson xotirasida, xayolida namoyon bo'ladi. Real mavjud, lekin sezilmaydigan qo'zg'atgichlar vujudga keltiradigan javob ta'sirotlarida, asli ongi paydo bo'lib, takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarda va boshqa holatlarda ro'y beradi. Mas odam o'z o'yxayollariga cho'mgan holda uyiga qaytadi va har holda yo'ldan adashmasdan keladi. Agar u biror xavfni sezib qolsa, bu xavfning sababi va qandayligini hali anglamasdan turib ham, himoya harakatini qiladi. Bemor psixikasida vujudga keladigan alahlash, gallyusinatsiya kabi patologik hodisalar, uxlash, gipnoz vaqtida, lunatizm chog'ida yuz beradigan psixik faoliyat ham ongsizlik holatiga kiradi. Freyd ongsizlikni sof irratsionalistik tarzda talqin etadi. Uning fikricha, ong bilan ongsizlik o'rtasida murosasiz qarama-qarshilik bor. Insonning butun xatti-harakati ana shu qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Ongsizlikni odam anglashga va payqashga jur'at etolmaydi, u insondagi azaliy mayllar maskanidir. Psixologik talqinga ko'ra ongsizlik voqelikdagi hodisalar bilan ruhiy jarayonlar, aktlar va holatlar majmuasi, tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan subyektning o'ziga hech qanday hisobot bermasligi, psixik aks ettirishning shakli, ya'ni voqelikning obrazi, tasviri, timsoli va unga nisbatan subyektning munosabati, mushohadaning

maxsus predmeti sifatida vujudga kelmasligi, qismlarga ajralmaydigan yaxlit tuzilishga ega ekani va hokazo.

Ongsizlikning onglilikdan farqi shuki, u aks ettiradigan voqelik subyektning kechinmalari, uning borliqqa munosabati bilan uyg'unlashib ketadi. Shuning uchun ongsizlikda subyekt tomonidan amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar natijasini ixtiyoriy ravishda nazorat qilish va baholash imkoniyati mavjud emas. Ongsizlik voqelik subyekt tomonidan o'xshashlik, ayniyat singari mantiqiy shakllarga asoslanib aks ettiriladi. Bu holda bevosita emotsional his qilish, emotsional yuqish va identifikatsiyalashga daxldorlik tuyg'usi orqali turlicha hodisalar o'zining tuzilishi, mohiyati jihatidan o'ziga xoslikdan qat'i nazar, bir tizimga birlashtiriladi, psixologik obyektlar o'rtasidagi muayyan xususiyatlar o'rtasidagi tafovutlar, mantiqiy qarama-qarshiliklar yaqqol namoyon bo'ladi. Ongsizlikda o'tmish bilan kelajak ko'pincha bir davrda hukm surayotgandek, go'yoki ular biron-bir psixik aktga bevosita birlashgan tarzda aks ettiriladi. Ongsizlik borliqni inson tomonidan bilishning ilk shakllarida, ibtidoiy tafakkurda, intuitsiyada, affektiv holatlarda, sarosimaga tushishda, gipnoz holatida, tush ko'rishda, odatiy harakatlarda, shuningdek, intilishlar, hissiyot, xulq-atvorda o'z ifodasini topadi. Buning sabablari va oqibatlari shaxs tomonidan anglanmaydi. Z.Freyd ongsizlik deb, ijtimoiy me'yorlar talabi bilan nizoli holat, qarama-qarshilik tufayli ongga kira olmagan, amalga oshmay qolgan mayllar qisilish mexanizmi yordami bilan begonalashib, individ yanglish aytgan so'zida, tush ko'rishida va boshqada aks etishini tushunadi. Freydning psixoanalizida va uning izdoshlari qarashlarida ongsizlikning yuzaga kelishi tor, cheklangan ma'noda tushuniladi va uning o'zgaruvchan xossalari shakllanishi bir yoqlama tahlil etiladi.

### References:

1. Xaydarov.F.I, Xalilova. N.I "Umumiy psixologiya" Toshkent-2010y
2. Karimova V.M. Psixologiya T-2002y.
3. G'oziyev E.G' Umumiy Psixologiya 1-2 kitob T-2002y
4. Davletshin M.G Umumiy Psixologiya T-2002y
5. Ivanov.P, Zufarova.M "Umumiy Psixologiya" T-2008y.